# AMIR TEMURNING DAVLAT BOSHQARUVI KONSEPSIYASI: ADOLAT, FIKRLAR XILMA-XILLIGI VA NEPOTIZMGA QARSHI KURASH

**Baxtshillayeva Muborak Hamidullo qizi,**
O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi
“Xalqaro munosabatlar” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
muborakbaxtshillayeva824@gmail.com
**Ilmiy rahbar:** s.f.f.d., dotsent Nuriddin Qolqanov

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisda “Temur tuzuklari” asari asosida Amir Temurning davlat boshqaruvi konsepsiyasidagi uch tamoyil – adolat, fikrlar xilma-xilligini inobatga olish va lavozimlarni qobiliyatga ko‘ra taqsimlash masalalari tahlil qilingan. Davlatni boshqaruvchisi adolat bilan birga vazir va mas’ullarning halolligi davlat barqarorligida hal qiluvchi rol o‘ynashi, rahbar turli qatlam vakillarining fikrini tinglab, ulardan oqilona foydalana olishi lozimligi yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur kadrlar siyosatidagi meritokratiya unsurlari sulolaviy boshqaruv sharoitida qanday namoyon bo‘lgani ko‘rsatilib, ularning bugungi kundagi nepotizm va korrupsiyaga qarshi kurash bilan aloqadorligi asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Amir Temur, “Temur tuzuklari”, davlat boshqaruvi, adolat tamoyili, hukmdor va vazir, kengash, jamoatchilik fikri, meritokratiya, nepotizm, kadrlar siyosati.*

**Abstract:** This thesis examines three principles of Amir Temur’s conception of governance based on *The Institutes of Temur*: justice, consideration of diverse viewpoints, and the allocation of public offices according to ability. It highlights the decisive role of the ruler’s commitment to justice and the integrity of ministers and officials in ensuring state stability. It also emphasizes the importance of leaders listening to representatives of different social strata and making judicious use of their views. Furthermore, the thesis explores how elements of meritocracy in Amir

Temur’s personnel policy manifested themselves within a system of dynastic rule and establishes their relevance to contemporary efforts to combat nepotism and corruption.

**Keywords:** Amir Temur, *The Institutes of Temur*, governance, principle of justice, ruler and minister, consultation, public opinion, meritocracy, nepotism, personnel policy.

**Аннотация:** В настоящих тезисах на основе произведения «Уложения Темура» анализируются три принципа концепции государственного управления Амира Темура: справедливость, учёт многообразия мнений и назначение на должности в соответствии со способностями. Раскрывается определяющая роль справедливости правителя, а также честности министров и должностных лиц в обеспечении стабильности государства. Подчёркивается необходимость того, чтобы руководитель прислушивался к мнениям представителей различных социальных слоёв и разумно учитывал их в управленческой деятельности. Кроме того, рассматриваются особенности проявления элементов меритократии в кадровой политике Амира Темура в условиях династического правления и обосновывается их связь с современными задачами противодействия непотизму и коррупции.

**Ключевые слова:** Амир Темур, «Уложения Темура», государственное управление, принцип справедливости, правитель и министр, совет, общественное мнение, меритократия, непотизм, кадровая политика.

## KIRISH

Davlat boshqaruvining samaradorligi, adolat va kadrlar tanlash masalalari har bir davrda dolzarb bo‘lib kelgan. O‘zbekistonda olib borilayotgan ma’muriy islohotlar, davlat xizmatida ochiqlik va korrupsiyaga qarshi kurash siyosati tarixiy boshqaruv tajribasini ilmiy o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bu jihatdan Amir Temur tomonidan yozilgan “Temur tuzuklari” alohida o‘rin tutadi: asarda davlatni idora qilish, amaldorlarni tanlash va ularning mas’uliyati haqidagi qarashlar tizimli bayon etilgan.

“Temur tuzuklar” matni bizgacha XVII asrning 30-yillarida Abu Tolib Husayniy tomonidan Boburiy hukmdor Shohjahonga fors tilida taqdim etilgan nusxa orqali yetib kelgan va uning muallifligi masalasi tadqiqotchilar orasida munozarali [5]. Shu bois asar Amir Temur davri boshqaruv g‘oyalarini aks ettiruvchi manba sifatida, Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari [3; 4] hamda Temur hokimiyatining tuzilishini tizimli o‘rgangan B. F. Manz tadqiqoti [6] ma’lumotlari bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. Mavjud ishlarda “Temur tuzuklari”dagi boshqaruv tamoyillarini zamonaviy kadrlar siyosati va korrupsiyaga qarshi kurash muammolari bilan bog‘lab o‘rganishga kamroq e’tibor qaratilgan.

## Asosiy qism

**Adolat va vazirlarning mas’uliyati.** “Temur tuzuklari”da hukmdor adolatining o‘zi yetarli emasligi alohida ta’kidlanadi:

“Sulton har narsada adolatparvar bo‘lsin, qoshida insofli, adolatli vazirlar tutsin, toki podshoh zulm qilgudek bo‘lsa, odil vazir uning chorasini topsin. Ammo agar vazir zolim bo‘lsa, ko‘p vaqt o‘tmay saltanat uyi qulaydi. Chunonchi, Amir Husaynning zolim bir vaziri bor edi, u sipoh-u raiyatga nohaq jarimalar solar edi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, o‘sha noinsof vazirning shumligidan Amir Husaynning saltanati uyi xarob bo‘ldi” [2, 88-b.].

Ushbu parchadan ko‘rinadiki, Amir Temur vazir va maslahatchilarni davlat boshqaruvining hal qiluvchi bo‘g‘ini deb hisoblagan. Hukmdor adolatparvar bo‘lgan taqdirda ham, yonidagi amaldorlarning zolimligi va mas’uliyatsizligi butun tizimning tanazzuliga olib kelishi mumkin. Amir Husayn misoli bu fikr nazariy mulohaza emas, balki Amir Temurning shaxsiy siyosiy tajribasiga asoslanganini ko‘rsatadi: sobiq ittifoqdoshi hokimiyatining qulashi unga boshqaruv apparati sifati qanchalik muhimligini anglatgan.

Mazkur tamoyil bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Har qanday davlat idorasida rahbar qanchalik malakali bo‘lmasin, uning quyi bo‘g‘indagi ijrochilari fuqarolarga adolatsiz yoki loqayd munosabatda bo‘lsa, butun tashkilotga bo‘lgan

ishonch pasayadi. Demak, tizim barqarorligi bir rahbarning xohishigagina emas, balki butun boshqaruv jamoasining halolligi va mas’uliyatiga bog‘liq.

**Fikrlar xilma-xilligi va maslahat asosida boshqaruv.** Amir Temur qaror qabul qilishda turli fikrlarni inobatga olish zarurligini quyidagicha ifodalaydi:

*“Saltanat ishlarida har kimning so‘zini eshitsin, har kimdan fikr olsin. Qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, uni ko‘ngil xazinasida saqlab, vaqtida ishlatsin”* [2, 89–90-b.].

Bu o‘git o‘rta asrlar sharoitida maslahat (kengash) asosida boshqarish an’anasini aks ettiradi. Shomiy va Yazdiy “Zafarnoma”larida ham muhim harbiy yurishlar va davlat ishlari oldidan amirlar hamda a’yonlar ishtirokida kengash – qurultoylar o‘tkazilgani qayd etiladi [3; 4]. Albatta, bu zamonaviy ma’nodagi so‘z erkinligi yoki demokratik institutlar bilan bir xil emas: yakuniy qarorni hukmdorning o‘zi qabul qilgan. Biroq tamoyilning mohiyati – rahbar faqat o‘z fikri bilan cheklanib qolmasligi, turli qatlam vakillarining taklifini eshitishi – bugungi kunda ham dolzarbdir.

Shu bilan birga, parchada muhim bir shart bor: fikrlarni eshitish ko‘pchilik ortidan ergashish degani emas. Rahbarning zakovati turfa fikrlar ichidan eng to‘g‘ri va foydalisini saralab, uni o‘z vaqtida qo‘llay olishida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy boshqaruvda bu jamoatchilik fikrini o‘rganish, ekspertlar bilan maslahatlashish va qaror loyihalarini ommaviy muhokamaga qo‘yish amaliyotiga mos keladi.

**Kadrlar siyosati: sulolaviy boshqaruv va meritokratiya unsurlari.** Lavozimlarni taqsimlash tartibi haqida “Temur tuzuklari”da shunday deyiladi:

*“Nabiralar esa har qaysisi iste’dodiga yarasha uch mingdan yetti ming otliqqacha ulufa olib, bir viloyatga egalik qilsin. Va yana menga qavm-qarindoshligi bor kishilarga o‘z holiga qarab, qobiliyatiga yarasha birinchi darajali amir martabasidan tortib to yettinchi darajali amir martabasigacha bo‘lgan amirlik va hukmdorlik (mansablari) berilsin. Ularning har biri o‘z martabasiga yarasha ish tutib, haddidan oshmasin. Bunga xilof ravishda ish tutganlar javobgarlikka tortilsin”* [2, 94-95-b.].

Bu parchani to‘g‘ri talqin qilish muhim. Temur davlati sulolaviy asosda qurilgan bo‘lib, viloyatlar va yuqori lavozimlar asosan hukmdor xonadoni a’zolari va unga yaqin amirlar o‘rtasida taqsimlangan [6]. Demak, qarindoshlarni boshqaruvdan butunlay chetlatish haqida gap bormaydi. Shunga qaramay, matnda ikki muhim cheklov mavjud: birinchidan, qarindoshlar ham martabani faqat qarindoshligi uchun emas, balki “iste’dodiga yarasha” va “qobiliyatiga yarasha” olishi lozim; ikkinchidan, o‘z vakolatidan oshgan har qanday shaxs, kimligidan qat’i nazar, javobgarlikka tortiladi.

Shu ma’noda “Temur tuzuklar”da zamonaviy “nepotizmga qarshi kurash” tushunchasining o‘zi emas, balki uning asosini tashkil etuvchi meritokratiya unsurlari – lavozimni qobiliyatga bog‘lash va vakolatni suiiste’mol qilganlik uchun javobgarlik tamoyillari ko‘zga tashlanadi. Bugungi kunda tanish-bilishchilik, urug‘-aymoqchilik va korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘luvchi eng jiddiy illatlardan hisoblanadi. O‘zbekistonda 2017-yilda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun ham korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish va davlat organlari faoliyatida ochiqlikni ta’minlashni asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilaydi [1]. Lavozimga munosiblar emas, balki tanish yoki qarindoshlar qo‘yilsa, boshqaruv tizimi inqirozga yuz tutadi – bu xulosa Amir Temur davrida ham, hozir ham birdek o‘rinli.

## Xulosa

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, “Temur tuzuklari”da davlat barqarorligi faqat hukmdor shaxsiga emas, balki vazir va amaldorlarning halolligiga ham bog‘liq deb qaraladi. Ikkinchidan, maslahat asosida qaror qabul qilish va turli fikrlardan saralab foydalanish tamoyili zamonaviy demokratik institutlardan farq qilsa-da, ochiq va asosli boshqaruvning muhim tarixiy ildizlaridan hisoblanadi. Uchinchidan, sulolaviy boshqaruv sharoitida ham lavozimni qobiliyatga bog‘lash va vakolatni suiiste’mol qilganlarni jazolash talabi Amir Temur kadrlar siyosatidagi meritokratiya unsurlaridan dalolat beradi.

Shunday qilib, “Temur tuzuklari” tarixiy yodgorlik bo‘lishi bilan birga, o‘z davri kontekstida tanqidiy o‘rganilganda bugungi davlat boshqaruvi, kadrlar siyosati va korrupsiyaga qarshi kurash uchun qimmatli saboqlar beradigan manba hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN MANBALAR:**

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/3088008

Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Pharos ambition, 2026.

Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 485 b.

Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b.

Andican A. A. Tüzükat-ı Timuri Gerçek mi ve Geçerli Bir Birincil Tarihî Kaynak Olarak Kullanılabilir mi? // Türkiyat Mecmuası. – 2017. – C. 27, № 2. – S. 33–83.

Manz B. F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.